

821.512.133.09(043.3)

Sh 53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SHERKULOV SARDOR KOMILOVICH

**UILYAM FOLKNER VA O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARINING
TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI
("Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" asarlari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Sherkulov Sardor Komilovich

Uilyam Folkner va O'tkir Hoshimov romanlarining tipolok xususiyatlari
("Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" asarlari misolida).....3

Шеркулов Сардор Комилович

Типологические особенности романов Уильяма Фолкнера и Уткира Хашимова
(На примере произведений «Шум и ярость», «Жизни, прожитые во сне»).....23

Шеркулов Сардор Комилович

Typological features of novels by William Faulkner and Utkir Hoshimov (In the
example of the works "The Sound and The Fury", "Lives in a Dream").....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....48

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SHERKULOV SARDOR KOMILOVICH

**UILYAM FOLKNER VA O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARINING
TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI**
("Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" asarlari misolida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TDPU
AXBOROT-RESURS
MARKAZI**



Ap-5566

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2021.1.PHD/Fil 901 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmonov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xoliqov Bahodir Aliqulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "11" 08 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (266 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "17" 07 kuni tarqatildi.

(2023-yil "17" 07 dagi 1 raqamli ryestr bayonnomasi).


N.Z. Somurodova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., dotsent
O.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy
koti, filol.f.d., dotsent
D.R. Yusupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XIX asr oxirlari XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran komparativistika muammolariga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Joriy asrga kelib muammoni tadqiq etishning ko'lamini global miqyosga chiqdi. Chunki qiyosiy adabiyotshunoslik va adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan adabiy ta'sir, adabiy aloqalar hamda tarjimashunoslik jahon adabiyotining taraqqiyoti uchun tarixiy-estetik asos bo'lib hisoblanadi.

Dunyo xalqlari adabiyoti doimiy tarzda adabiy aloqalar, bir xalq madaniyati va adabiyotiga doir tajribalarni boshqa bir xalq tomonidan ijodiy o'zlashtirilishi natijasida rivojlanadi, umumjahon miqyosiga ko'tariladi. Sharq xalqlarining birinchi Renessansi Italiya, Ispaniya, Fransiya orqali butun Yevropa madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq falsafasi, ilm-fanini keng miqyosli, chuqur o'rgangan Yevropa xalqlari bulardan o'z uyg'onish konsepsiyalarini belgilashda asos sifatida foydalanganlar. Natijada Yevropa XIV asrlardan boshlanib, XVII asrlarda o'zining taraqqiyot cho'qqisini egallagan fan-texnika, madaniyat, falsafa, adabiyot sohalarini yutuqlariga erishdilar. Endilikda o'z yutuqlarining zamonaviy ruhi, samarador amaliy natijalari bilan butun Sharq xalqlari madaniy turmushi va ijtimoiy hayotiga ta'sir o'tkaza boshladilar.

O'zbek milliy madaniyati va adabiyoti global ko'lamda kechgan bu jarayonga XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan e'tiboran faol tarzda ishtirok eta boshladi. Dastlab rus madaniyati, keyinroq umum Rossiya miqyosida boshlangan jadidchilik harakati o'zbek ma'rifatparvarlarining jahon xalqlari madaniyati bilan tanishish, o'zlashtirish, yangilanish faoliyatlarining jadallashuviga omil bo'ldi. XX asrda Yevropa xalqlari adabiyotidan qilingan tarjimalar, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir, adabiy aloqalarga oid tadqiqotlar milliy yozuvchi va shoirlarimizning yangi janrlar, badiiy obrazlar, badiiy shakllarga eksperimental tarzda murojaat qilish jarayonlarini tezlashtirdi. O'zbek adabiyotiga Amerika nasrining ta'siri ham xuddi shunday global miqyosdagi komparativistik munosabatlarning amaliy natijasi bo'lib hisoblanadi. Amerikalik mashhur yozuvchi U.Folkner an'analari qator o'zbek yozuvchilari, xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'.Hoshimov ijodiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatganki, muammoning qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida o'rganilishi mustaqillik davri adabiyotining ilmiy taraqqiyoti uchun dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-con "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VMQ-304-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tadqiqotimiz obyekti boʻlgan amerikalik yozuvchi U.Folkner va oʻzbek yozuvchisi Oʻ.Hoshimovlar ijodi oʻzining ilk davridan eʼtiboran adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etib kelinadi.

U.Folknerning roman, qissa va hikoyalari haqida dunyo adabiyotshunoslari, estetiklari, faylasuflari va sotsiologlari tomonidan yozilgan ishlarning oʻzi alohida dissertatsiya tadqiqotini talab etadi. Anʼanaviy realizm va modernizm adabiyoti negizida maydonga kelgan, maʼlum maʼnoda shu ikki ijodiy metod oʻrtasidagi koʻprik vazifasini oʻtagan U.Folkner nasri jahon adabiyot mutaxassislarinigina emas, adabiyot muxlislarini ham befarq qoldirmagan. Ayniqsa, uning “Avgust yogʻdusi”, “Avessalom, Avessalom!”, “Shovqin va gʻazab” romanlari adabiy jamoatchilik hamda adabiyotshunoslar tomonidan qizgʻin kutib olingan, atroflicha tadqiq etilgan. Yozuvchi romanlarining Amerika va Yevropa nasri anʼanalariga munosabati, ushbu romanlarga xos yangilanish tamoyillari, poetik takomil masalalari, folknerona syujet, uslub, obrazlar dunyosi, psixologik tahlil masalalari XX asrning 50-90-yillarida Amerika va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan qiyosiy, ilmiy-nazariy, psixologik nuqtayi nazardan faol tarzda tadqiq etilgan¹.

Yozuvchi asarlari rus va oʻzbek adabiyotshunosligida ham izchil tadqiq va tahlil etilgani kuzatiladi.

Rus folknershunoslari oʻzining aniq tizimi va ilmiy-tarixiy asosiga ega. Oʻtgan asrning 70-yillaridan boshlangan rus folknershunoslrigida yozuvchi nasrining tarixan maydonga kelishi, rus va Yevropa romanchiligi bilan poetik aloqadorlik jihatlarini, lirizm, kinoya, “kulgu uygʻotuvchi soʻz”, badiiy obrazlar tipologiyasi, syujet hamda badiiy vaqt konsepsiyasi muammolari doirasida oʻrganilgan. Bu oʻrinda

¹ Abel D. Frozen Movement in “Light in August” // W. Faulkner’s “Light in August”: A Critical Casebook / Ed. by Pitavy F.L. – N.Y.: Garland Publishing, 1982; Adams R.P. Faulkner: Myth and Motion. – Princeton: Princeton UP, 1968; Aswell D. The Recollection of the Blood: Jason’s Role in “The Sound and the Fury” // W. Faulkner’s “The Sound and the Fury”: A Critical Casebook / Ed. by Bleikasten A. – N.Y.: Garland Publishing, 1982; Backman M. Faulkner: The Major Years. – Bloomington (Ind.): Indiana UP, 1966; Bedient C. Pride and Nakedness: “As I Lay Dying” // Faulkner: New Perspectives / Ed. by Brodhead R.H. – Englewood Cliffs (N.J.): Prentice Hall, 1983; Blocker G. William Faulkner // Faulkner: A Collection of Critical Essays / Ed. Warren R.P. – Englewood Cliffs (N.J.): Prentice Hall, 1966; Blotner J. Romantic Elements in Faulkner // Romantic and Modern: Revaluations of Literary Tradition / Ed. Bornstein G. – Pittsburgh (Penn.): University of Pittsburgh Press, 1977; Bowling L. The Technique of “The Sound and he Fury” // William Faulkner: Two Decades of Criticism / Ed. by Hoffman F.J. and Vickery O.W. – East Lansing (Mich.): Michigan State UP, 1951; Fowler D. Faulkner: The Return of the Repressed. – Charlottesville (Virg.): UP of Virginia, 1997; Gray R. History as Autobiography: An Approach to the Fiction of William Faulkner // Rewriting the South: History and Fiction / Ed. by Honnighausen L. and Lerda V.G. – Tubingen: Francke, 1993; Handy W.L. “As I Lay Dying”: Faulkner’s Inner Reporter // The Modern American Novel / Ed. with an intr. by Westbrook M. – N.Y.: Random House, 1966; Hirschleifer P. As Whirlwinds in the South: an Analysis of “Light in August” // William Faulkner: Four Decades of Criticism / Ed. by Wagner L.W. East – Lansing (Mich.): Michigan state UP, 1973; Honnighausen L. Faulkner: Masks and Metaphors. – Jackson (Miss.): University Press of Mississippi, 1997; Kartiganer D.M. The Fragile Thread: The Meaning of Form in Faulkner’s Novels. – Amherst (Mass.): The University of Massachusetts Press, 1979; Malin I. William Faulkner: An Interpretation. – Stanford (Calif.): Stanford UP, 1957; Matthews J.T. Faulkner and Proletarian Literature // Faulkner in Cultural Context / Ed. by Kartiganer D.M. and Abadie A.J. – Jackson (Miss.): UP of Mississippi, 1997; Miner W.L. The World of Faulkner. – N.Y.: Grove Press, 1952; Modern Critical Interpretations: William Faulkner’s “Light in August” / Ed. Bloom H. – N.Y.: Chelsea House, 1988; Moseley E.M. Pseudonyms of Christ in the Modern Novel: Motifs and Methods. – Pittsburgh (Penn.): University of Pittsburgh Press, 1962 va h.k.

V.M.Tolmachev, Ye.A.Stetsenko, O.N.Shevlyakova, M.V.Pavilenene, G.A.Vetoshkina, I.V.Dubovik, L.I.Serdyukova, L.Sh.Strelko, E.E.Topuridze, V.A.Kostyakov, M.S.Danelia, K.A.Stepanyan, N.G.Kondraxina, N.E. Pudovochkina, N.P. Ashixmina, M.Yu.Asanina tadqiqotlarini alohida e'tirof etish maqsadga muvofiq².

O'zbek adabiyotshunosligida U.Folkner ijodiga qiziqish va uni tadqiq etish faqat keyingi o'n yilliklarga kelib muayyan shakl-shamoyil kasb etyapti. Shu boisdan, o'zbek folknershunoslighi o'zining ilk tanishtiruv bosqichini o'tayapti deyish mumkin. Yozuvchi tarjimai holi, hikoya va romanlarining maydonga kelishi va syujet xususiyatlari, "Shovqin va g'azab", "Avgust yog'dusi", "Avessalom, Avessalom" romanlari, "Emili uchun atirgullar" hikoyasi haqidagi dastlabki tasavvurni o'zbek o'quvchisi M.Xolbekov, M.Sharafiddinova, A.Jo'rayev, N.Eshonqul, Sh.Ortiqov, T.Eshboyeva kabi adabiyotshunos, yozuvchi va yosh tadqiqotchilar ishlari orqali bilib olishi mumkin. M.Xolbekov, M.Sharafiddinova, A.Jo'rayev ishlarida yozuvchi asarlarining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalariga ham qisman e'tibor qaratilgan. Adabiyotshunos M.Sharafiddinova yozuvchi nasrini O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani uslubi va kompozitsiyasi bilan, A.Jo'rayev esa U.Folkner "Emili uchun

² Толмачев В.М. "Великий американский роман" и творчество У.Фолкнера // Зарубежная литература XX века. – М.: 1990; Толмачев В.М. От романтизма к романтизму: Американский роман 1920-х годов и проблема романтической культуры. – М., 1997; Стеценко Е.А. Художественное время в романах У.Фолкнера // НДВШ-№4. (Филологические науки). – М., 1977; Зверев А.М. Американский роман 20-х – 30-х. – М., 1982; Шевлякова О.Н. Особенности поэтики трилогии Уильяма Фолкнера (10.01.05). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук / МГУ им. М.В.Ломоносова. Филол. фак. – М., 1977. – 24 с.; Павиленене М.В. Концепция и образ человека в творчестве Уильяма Фолкнера (10.01.05). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук / Киев. гос. ун-т им. Т.Г.Шевченко. – Киев, 1977. – 20 с.; Ветюшкина Г.А. Гамлетовский код в интертекстуальном пространстве романов У.Фолкнера "Шум и ярость" и "Авессалом, Авессалом": к проблеме поэтического романа. Автореф. дис. к ф. н. – Воронеж, 2007. – 22 с.; Дубовик И.В. Взаимодействие эпических жанров в творчестве У.Фолкнера, конец 30-х-начало 40-х гг. (10.01.05). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук / Тбл. гос. ун-т им. И.Джавахишвили. – Тбилиси, 1990. – 16 с.; Сердюкова Л.И. Некоторые особенности синтаксиса предложения романов У.Фолкнера: (10.02.04). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук / Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз. им. Мориса Тореза. – М., 1973. – 32 с.; Стрелко Л.Ш. Негритянская проблематика романов У.Фолкнера: (10.01.05): (Конец 20-х-начало 40-х гг.). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Тбилиси, 1981. – 24 с.; Топуридзе Э.Е. Поэтика романа Уильяма Фолкнера (10.01.15). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д-ра филол. наук / Тбл. гос. ун-т. – Тбилиси, 1987. – 46 с.; Костяков В.А. Трилогия Уильяма Фолкнера (10.01.05). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук / Моск. гос. ун-т им. М.В.Ломоносова. Филол. фак. – М., 1975. – 22 с.; Даниели М.С. Американская психологическая новелла XX века (20-40 гг.) по произведениям Уильяма Фолкнера и Томаса Вулфа (10.644). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук / Тбл. гос. ун-т. – Тбилиси: Изд-во Тбл. ун-та, 1974. – 33 с.; Степанян К.А. Типы и функции повествователей в романах Ф.М. Достоевского и У. Фолкнера (10.01.01). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук / АН СССР. Ин-т мировой лит. им. А.М.Горького. – М., 1978. – 29 с.; Костяков В.А. Трилогия Уильяма Фолкнера / Под ред. проф. М.Н.Бобровой. – Саратов: Изд. Сарат. ун-та, 1969. – 102 с.; Искоз-Долнин А.А. К вопросу о литературной традиции Ф.М.Достоевского в творчестве Уильяма Фолкнера: (Романы "Святынище" и "Реквием по монахине"). Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук (10.01.05). – Л., Ленингр. гос. ун-т им. А.А.Жданова, 1977. – 18 с.; Кондрахина Н.Г. Прimitив как коммуникативная модель и художественный опыт У.Фолкнера. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук: 10.01.03. – М., 2004. – 20 с.; Делазари И.А. Аксиологические модели в структуре художественного мира У.Фолкнера: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук: 10.01.03. – С.П., 2003. – 24 с.; Пудовочкина Н.Е. Неомифологизм в художественной культуре США XX в.: На материале произведений У.Фолкнера и Дж.Алпайка. 2005; Ашихмина Н.П. Основные тенденции развития палестинской прозы 50-60-х годов XX века и их отражение в творчестве Гассана Канафани. 1984; Даниели М.С. Сопоставительный анализ психологической новеллы У.Фолкнера и Т.Вульфа. 1985; Володина А.В. Творчество У.Фолкнера и традиции планетарного романа. Автореф. дис. к ф. н. – М., 2016; Асанина М.Ю. "Смеховое слово" в художественной прозе У.Фолкнера второй половины 1920-х-начала 1930-х годов: На материале произведений "Йокнапатофского цикла" 2004; Агнева М. Тематика и идеи творчества У.Фолкнера //Балтийский гуманитарный журнал. - №2 (15), 2016, и т.д.

atirgullar” hikoyasini bevosita shu roman obrazlari tizimi bilan syujet xususiyatlariga ko‘ra muxtasar qiyoslaganlari, ilmiy xulosalarni ilgari surganlari diqqatga sazavor³.

O‘.Hoshimov ijodining badiiyati, biografik omillari, ijtimoiy-estetik ko‘lami professor A.Rasulov tadqiqotlarida, ayniqsa uning “Ardoqli adib” risolasida yetarli darajada yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchi shaxsiyati, asarlarining maydonga kelish tarixi, adabiy jarayonda tutgan o‘rni masalalari, dramatik ijodi qator nufuzli o‘zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Bu borada nomzodlik dissertatsiyasi ham himoya qilingan⁴.

Ammo shuni qayd etish kerakki, O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani haligacha o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan qiyosiy-tipologik yo‘sinda, xorij yozuvchilari, xususan, U.Folknerning “Shovqin va g‘azab” romani bilan solishtirib o‘rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan mazkur tadqiqotning o‘zbek nasri an‘analarning yangilanishi, xorij adabiyoti bilan poetik munosabati masalasini ilmiy tizim asosida o‘rganilishi jihatidan zarurati kattadir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi U.Folknerning “Shovqin va g‘azab” hamda O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarini qiyosiy-tipologik tahlil etish, ular o‘rtasidagi poetik munosabat masalasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va jahon adabiyotshunosligi materiallarini tasnifiy umumlashtirish orqali komparativistika, qiyosiy-tipologik tadqiq muammolari xususida fikr yuritish;

U.Folkner va O‘.Hoshimov ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi haqida nazariy umumlashmalar chiqarish;

adabiy-madaniy globalashuv jarayonlari, adabiy aloqalar, adabiy ta‘sir natijalarining zamonaviy o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rmini U.Folkner nasri an‘analari misolida yoritib berish;

³ Xolbekov M. Folkner olami // O‘zAS, 2011. – №43, Eshonqul N. Uilyam Folkner / Ziyouz.uz, 03.05.2017; Xolbekov M. Uilyam Folkner romanlari poetikasi / XX asr jahon manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. – B. 270-311; Eshboyeva T. Toki dunyoda muqarrarlik bor / <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/uilyam-folkner-qayyuga-aylangan-vaqt-tillaniso-eshboyeva-toki-dunyoda-muqarrarlik-bor.html>; Ortiqov Sh. Fursati kelmagan endshpil. <https://www.edebi.net/index.php/oezbek-edebyati-ozbek-adabiyoti/20-21-as-r/7044-sh-rz-d-r-i-v-furs-i-l-g-n-endshpili>.

⁴Qarang: Jo‘rayev A. Tasvirdagi o‘ziga xoslik/ <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-11416-1.html>.page=7; Do‘stmuhammad X. Iste‘dod / <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-11416-1.html>.page=7; Sharafiddinova M. Mashhurlikning bir siri / <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-11416-1.html>.page=7; Qodirov P. San‘atkor adib / <https://uz.denemetr.com/docs/768>; Normatov U. Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari / <https://uz.denemetr.com/docs/768>; Хамидова М.О. Мастерство Уткира Хашимова в использовании сказок // Молодой ученый. - № 2 (106). 2016. – С. 856-858; Do‘ysenboyev O.I. O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Filol.f.n ... diss. avtoref. – Toshkent, 2011; Dyuysenbayev O. O‘tkir Hoshimov ijodida badiiy obraz va milliy an‘analari munosabati // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. - № 6. – Samarqand, 2005. – B. 64-67; Dyuysenbayev O. O‘tkir Hoshimov ijodida xarakter evolyusiyasi va psixologizm // Filologik tadqiqotlar. To‘plam. Birinchi qism. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 18-25; Dyuysenbayev O. Inson irodasining badiiy talqini (O‘tkir Hoshimov ijodi misolida) // Filologik tadqiqotlar. To‘plam. 1-qism. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 85-90; Dyuysenbayev O. O‘tkir Hoshimov asarlarida xarakter dramatismini // Til va adabiyot ta‘limi. - № 3. – Toshkent, 2007. – B. 23-27; Dyuysenbayev O. Ijodiy tafakkurni shakllantirishda monologik ong funksiyalari // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. - № 6. – Samarqand, 2007. – B. 58-62; Dyuysenbayev O. Ruhiyatni shakllantirishda monologik nutqning o‘rni // O‘zbek marosim folklorini o‘rganishning yangicha tamoyillari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Navoiy, 2007. – B. 161-163.

O'.Hoshimov asarlarining umumiy ko'lami va miqyosini ko'rsatish, yozuvchi ijodida U.Folkner nasrining o'rni va ahamiyatini belgilash;

"Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" romanlarida kompozitsiya, syujet mushtarakligi xususida fikr yuritish;

"Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" romanlari o'rtasidagi obraz mushtarakligi, epik tasvir usullari hamda badiiy vaqt poetikasini qiyosiy-tipologik tahlil yo'li bilan ochib berish;

U.Folkner, O'.Hoshimovlarning olam va odamni badiiy idroklash, buni roman janri doirasida epik tasvir etishdagi o'ziga xosliklari haqida ilmiy xulosalarga ega bo'lish.

Tadqiqotning obyekti sifatida amerikalik yozuvchi U.Folknerning "Shovqin va g'azab", o'zbek yozuvchisi O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari olindi.

Tadqiqotning predmetini U.Folkner va O'.Hoshimov romanlarining kompozitsiyasi, syujet mushtarakligi, obrazlar tizimi, bir voqeani turli qahramonlar nuqtayi nazaridan hikoyalaniishi, muallif betarafligi, badiiy vaqt konsepsiyasining poetik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, qisman psixologik, biografik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

U.Folknerning "Shovqin va g'azab", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar roman konsepsiyasi, ushbu janrga xos badiiy komponentlar muqoyasasi asosida ochib berilgan;

jahon adabiyotidagi poetik globalashuv jarayonlarining zamonaviy o'zbek adabiyotiga estetik ta'siri, bunday adabiy ta'sirning sabab va omillari aniqlanib, mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi doirasida ilk bor bugungi o'zbek nasri va U.Folkner ijodiy an'analari muammosi o'rta tashlangan hamda asoslangan;

O'.Hoshimov ijodining milliy mohiyati, shakllanishi, takomil omillarini tahliliy o'rganish asnosida yozuvchi ijodida xorij adabiyoti an'analari, xususan, U.Folkner nasrining o'rni va ahamiyati ochib berilgan;

"Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" romanlari o'rtasidagi obrazlarning yangiligi, ularning muallif obraziga tobe bo'lmagan holda voqelikni mustaqil hikoyalashi, bunday nuqtayi nazarlar xilma-xilligi roman uslubi, epik tasvir, badiiy vaqt poetikasining original talqiniga olib kelganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qiyosiy-tipologik metod mohiyatini yoritish, nazariy umumlashmalar chiqarish; jahon va o'zbek adabiyotshunosligi materiallari qiyoslash asosida yoritib berishning qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta'sir muammolariga doir monografik tadqiqotlar tayyorlash, o'quv, metodik qo'llanmalar ishlab chiqishdagi ilmiy ahamiyati dalillangan;

dissertatsiyaning nazariy bazasini to'g'ri shakllantirish maqsadida qiyosiy-tipologik metodga doir jahon va o'zbek adabiyotshunosligida mavjud materiallar ilmiy tasnif asosida ishlab chiqilgan, shu asosda U.Folkner va O'.Hoshimov ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi masalalari ilmiy asosda yoritilgan;

har ikki roman kompozitsiya, syujet mushtarakligi nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil etilib, nazariy umumlashma va xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi yangi, aniq va konseptual jihatdan zarur muammo qo'yilganligi, o'zbek va jahon adabiyotshunoslik ilmining samarador nazariy xulosalari, yangilangan roman janriga xos kashfiyotlariga tayanilgan holda manbalarning analitik o'rganilganligi, komparativistika, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologiya metodlari yutuqlari istifoda etilib, o'zbek adabiyotshunosligi uchun yangi badiiy materiallarga tatbiq qilinganligi asosida ilmiy-amaliy natija va xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahlil tamoyillari, o'rganilgan materiallarning ilmiy tasnif asosida tadqiq etilishi, bu asosda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar o'zining zamonaviyligi, dolzarbligi, yangilangan roman janri, realistik hamda modernistik roman sintezi haqidagi to'xtamlar, roman kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimi, badiiy vaqt va epik tasvir mutanosibligiga doir ilmiy natijalar adabiy jarayonda yozuvchi ijod laboratoriyasini boyitadi, mustaqillik davri o'zbek nasri poetikasining kengayishi, rivojiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, tarjimachilik va jahon adabiyoti, roman janri, badiiy obraz poetikasi, kompozitsion shakllar, badiiy syujet, uslub, badiiy vaqt muammolariga doir monografik tadqiqotlar yaratishda, qiyosiy tipologiya muammolarini atroflicha tushunish va tushuntirishda qo'l kelishi, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari uchun darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amerika va o'zbek adabiyotining o'zaro adabiy aloqalari, roman janri tipologiyasi tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

taniqli adib O'tkir Hoshimov ijodining o'zbek nasri taraqqiyot tendensiyalariga munosabati, yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlari, asarlarida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy muammolarning aks etish qonuniyatlari, realistik tasvir tamoyillari, badiiy-estetik o'ziga xosligi, yozuvchining avtobiografik xarakterdagi qissa va hikoyalari muallif obrazi, romanlarining shakl va kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklar, yozuvchi tasvir uslubidagi betakrorlik, bir voqeaning turli qahramonlar tomonidan hikoyalaniishi, adibning badiiy mahorati namoyon bo'lgan jihatlar, adib nasri poetikasiga xos qirralar tadqiqi, shuningdek, adibning ijodiy individualligini ta'minlagan omillar, an'analar negizida yangicha hikoyalash uslubi va yangi kompozitsion shaklning paydo bo'lganligi, realizm qolipidan chiqib yangi avlodga xos eksperimental realizmga asos solganligi yozuvchi asarlarining o'zbek nasri taraqqiyotida tutgan o'rni doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020- yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish" mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-fevraldagi 01/4-274-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek adabiyoti tarixining XX asr oxiri adabiy jarayoni, adabiyotda yangi motiv va muammolarning paydo bo'lishiga doir ilmiy qarashlarning boyishiga asos bo'lgan;

U.Folknerning “Shovqin va g‘azab”, O‘.Hoshimovning “Tushda kech kechgan umrlar” romanlarida turli munosabat, idrok va ifoda yo‘llarining parallel ifodalanishi, romanlar syujeti bir nechta qahramonlar tilidan hikoya qilinishi, muallif obrazini qahramonlar obrazi qatlarida bekitib, ma‘noni sirli ifodalab, badiiy konsepsiyalarini xarakterlar, portretlar, nuqtayi nazarlar vositasida aytishi, an‘analar negizida yangicha hikoyalash uslubi va yangi kompozitsion shaklning paydo bo‘lishi kabi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020- yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe‘l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 27-fevraldagi 04/1-425-son ma‘lumotnomasi). Natijada yangi yaratilgan poetik lug‘at insonning tabiati, fe‘l-atvori, badiiy qahramonning ichki dunyosini tasvirlashga doir ilmiy izohlar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

komparativistika, adabiy ta’sir, adabiy aloqalarning zamonaviy muammolari, madaniy-tarixiy globallashuv jarayonlarida hozirgi o‘zbek adabiyoti, jumladan nasriy asarlarining poetik takomillashuviga xizmat etgan tipologik omillar, roman janri, uning Amerika va o‘zbek adabiy muhitidagi takomillashuvi, roman poetikasi, romanga xos kompozitsiya to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Bedorlik” radioeshittirishida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 30-yanvardagi 04-36/142-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dastur uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy ma‘lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti faslni o‘z ichiga oluvchi uch bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**U.Folkner va zamonaviy o‘zbek nasri: tipologik yondashuv, adabiy ta’sir masalasi**” deb nomlanib, ikki faslni tashkil etadi. Bobning “*U.Folkner va O‘.Hoshimov ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi*” nomli birinchi faslida qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim nazariy asosi bo‘lgan

tipologiya masalasi o'rganilgan. Tipologik yondashuvning U.Folkner va O'.Hoshimov ijodini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Tipologiya – o'zbek va jahon adabiyoti mushtarakligini aniqlab beruvchi ilmiy-nazariy yondashuv, eng muhim metodologik vosita bo'lib, tipologiya va adabiy ta'sir bir-birini taqozo etadigan, ikki yoki undan ortiq millatlar adabiyotini qiyosiy o'rganishga qaratilgan adabiyotshunoslik usuli hisoblanadi.

Umuminsoniy muammolarning global badiiy talqini bir-ikkita Yevropa millatlari adabiyoti bilan cheklanib qolgani yo'q. U deyarli barcha G'arb va Sharq xalqlari adabiyotiga xuddi industrial inqilob singari, ketma-ket kirib keldi. Sharqda yapon, xitoy, eron, arab, turk adabiyoti namunalarida yaqqol ko'rindi. Rossiya musulmon o'lkalari Qrim, Qozon, Ozarbayjonda, O'rta Osiyoning Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston hududlarida shu mavzuga doir lirik, epik, dramatik asarlar paydo bo'ldi. Turkistonda esa umumbashariy muammolarning milliy ijtimoiy turmush prizmasida badiiy yoritilishi jadid adabiyotida yaqqol namoyon bo'ldi. Dastlabki bosqichda M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho'lpon asarlarida jo'shqin ijtimoiy pafosga yo'g'rilgan she'rlar, dostonlar, dramalar, roman, qissa va hikoyalar maydonga kelganini kuzatish mumkin.

O'zbek adabiyotiga xos global jarayonlarni kuzatish uchun shu adabiyot ichidagi xususiy holatlarni qiyoslash bilangina cheklanish mumkin emas. Bu holatda ilmiy talqin bir yoqlama bo'lib qoladi. Qolaversa, milliy adabiyotni qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida o'rganish, uning jahon adabiyoti doirasida tutgan o'rni, badiiy-ma'naviy darajasi, milliy o'ziga xosligini belgilashga asos bo'ladi. Tipologik yondashuv ayni paytda keng ko'lamli badiiy-falsafiy, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Akademik B.Nazarovning fikricha: "Tipologiya – vaqt va manzil, davr va zamondan qat'i nazar, turlicha yaqin va uzoqlikdagi turli adiblar ijodi va milliy adabiyotlararo ... yaqinlik, o'xshashlik, muqobillik, hammonandlik, ayniyatdoshlikdir"⁵. Filologiya fanlari doktori Suvon Meliga ko'ra: "Adabiyot va san'at namunalarini yanada aniq va chuqur o'rganish talabi natijasida komparativizm, qiyosiy-tarixiy metod kabi adabiy tekshirish usullari vujudga kelgan. Tipologiya ushbu metod va usullarning nisbatan xususiyroq bir yo'lidir... Binar tipologiya tipologik qiyosga asoslangan tadqiqotlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Zero faqat ikkilangan, ikkiga bo'lingan narsanigina solishtirish mumkin, bitta narsa esa qiyosga emmaydi"⁶.

Yuqoridagi ilmiy ta'rif va tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, bizning dissertatsion tadqiqotimiz ko'proq tipologik aloqalarning kontaktli tipiga to'g'ri keladi, tarjima va adabiy aloqalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda tadqiqotimiz obyektlari bo'lgan amerikalik yozuvchi U.Folkner va o'zbek yozuvchisi O'.Hoshimovlar yashagan davr, muhit, ijtimoiy shart-sharoit, odamlar, ularning g'oyaviy qarashlarida ham ma'lum o'xshashliklar bor. Demak, bu ikki yozuvchi asarlari o'rtasidagi tipologik jihatlarni o'rganish, qiyosiy tadqiq etish uchun badiiy, ilmiy, falsafiy va ijtimoiy asoslar yetarli darajada. Darhaqiqat, U.Folkner va O'.Hoshimov ijodiga doir tadqiqotlarning aksariyati qiyosiy planda ishlangan bo'lib,

⁵ Nazarov B. O'zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: Ta'sir va tipologiya. – T.: Muharrir, 2019. – B. 6.

⁶ Meliyev Suvonqul (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi. – T., 2019. – B. 106.

ularda yozuvchilar ijodining boshqa millat yozuvchilari asarlari bilan tipologik tomonlari o'rganilgan.

Adabiyotshunoslikda U.Folkner va O'.Hoshimov ijodini tadqiqotchilar tomonidan tipologik o'rganilishini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Badiiy nasrning yangi bosqichi, adabiy oqimlar nuqtayi nazaridan qiyoslab o'rganish.

2. Umumpoetika masalalari va struktur xususiyatlari muqoyasasi.

3. Kompozitsiya va syujet tipologiyasi.

4. Badiiy obrazlar mushtarakligi.

5. Psixologik tasvirda roviyning o'xshashligiga ko'ra.

7. Neomifologik badiiy talqin xususiyatlari qiyosi va h.k.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra U.Folkner (William [Harrison] Faulkner, 1897—1962) o'z ijodining dastlabki bosqichida E.Hemenguey realizmi va Vulf romantizmiga ergashish bilan boshlangan. Ma'lum darajada rus yozuvchisi F.Dostoyevskiy, irland yozuvchisi, jahon modernizmining otasi J.Joys nasri uslubidan ta'sirlangan. O'z davrining yangilangan uslubi bilan janubiy Amerika folklori, Injil uslubini sintezlagan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham U.Folkner ijodi bo'yicha olib borilgan muayyan tadqiqotlar mavjud. Ularni mustaqil folknershunolik darajasiga ko'tarilgan, rus va jahon folknershunoslari ta'siridan xoli tadqiqotlar deb bo'lmaydi, albatta. Avvalo, jahon modernizm adabiyoti haqida fikr yuritgan ko'pchilik mutaxassislar boshqa vakillar qatorida U.Folkner nomini ham tilga olib o'tadilar. Uning ijodi haqida umumiy ta'rif va tavsif bilan cheklanadilar. Masalan, O.Sharafiddinov, P.Qodirov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Sarimsoqov, S.Meli, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.Jo'raqulov, U.Hamdamov, B.Karimov tadqiqotlarini shu siraga kiritishimiz mumkin. Marhum adabiyotshunos olim M.Olimov esa yozuvchi va qahramon pafosining ichki "men" doirasidagi psixologik bog'liqligi haqida gapirar ekan, "Shovqin va g'azab" romanidagi Benji, Jeyson, Kventin va Keddi obrazlari tahlili misolida fikrini asoslashga harakat qiladi⁷.

Filologiya fanlari nomzodi Ashurali Jo'rayevning O'tkir Hoshimov haqida yozilgan jiddiy bir tadqiqoti U.Folkner romanlarining adabiy ta'sir doirasi bundan keyin o'zbek adabiyotida ham kengayib borishiga dalolat qiladi desak xato qilmagan bo'lamiz. "Tasvirdagi o'ziga xoslik" deb nomlangan mazkur ishda O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani U.Folknerning "O'lar chog'imda" (1930) romani bilan qiyoslangan. Eng muhimi tadqiqot muallifi muqoyasa obyekti bo'lgan romani O'.Hoshimov ijodining yangi bosqichi ekaniga urg'u beradi. Qiyosiy tahlil asosida fikrini dalillashga harakat qiladi: "Adibning "Bahor qaytmaydi" (1971), "Qalbingga quloq sol" (1974), "Nur borki, soya bor" (1977), "Dunyoning ishlari" (1981) kabi talay asarlari an'anaviy uslubda yozilgan, deb yozadi bu haqda muallif, -Voqealar oqimi bir o'zanda boradi va tasvirda an'anaviylik ko'rinib turadi. Ularda boshqa yozuvchilardagi kabi muallifning o'zi hikoya qiladi, kitobxon uning pozitsiyasini qiynalmay anglaydi va qabul qiladi"⁸.

⁷ Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. – Toshkent, 1994.

⁸ Jo'rayev A. Tasvirdagi o'ziga xoslik/ <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-11416-1.html> page=7

Professor Abdugʻafur Rasulov oʻz xotiralarida yozishicha, Oʻ.Hoshimov bilan bir mahallada yashagan ekan. Shuning uchun boʻlsa kerak “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi” asarlariga biografik nuqtayi nazardan yondashadi. O.Doʻysenboyevning dissertatsion tadqiqotida Oʻ.Hoshimov asarlari markazidan qizil ip boʻlib oʻtadigan ona obrazi haqida fikr yuritilgan. Bu masala tadqiqotchining faqat dissertatsion ishida emas, qator kichik tadqiqot va maqolalarida him atroflicha yoritilgan⁹. Yozgan tadqiqotlaridan aniq koʻrinadiki tadqiqotchi Oʻ.Hoshimov asarlaridagi ona obrazini xarakter, monologik nutq, folklorizmlar nuqtayi nazaridan keng miqyosda oʻrganagan. Dissertatsiyada yozuvchining “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari, “Dunyoning ishlari” qissasi, qator hikoyalar, publitsistik maqolalar va qisman “Inson sadoqati” dramasi ona obrazi muammosi doirasida oʻrganilgan. Umuman, oʻzbek adabiyotshunosligida hoshimovshunoslik ham asta sekinlik bilan oʻzining oʻrnini topib boryapti.

“Zamonaviy oʻzbek adabiyotida U.Folkner nasri anʼanalari” nomli ikkinchi faslda amerikalik ushbu yozuvchining zamonaviy oʻzbek yozuvchilariga taʼsiri, bu asosda yuzaga kelgan poetik yangilanishlar haqida soʻz boradi. Adabiy taʼsir, mutaxassislariga koʻra, quyidagi omillar asosida maydonga keladi:1) ikki yoki undan ortiq xalq oʻrtasidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy aloqalar vositasida; 2) adabiyotlar oʻrtasidagi qondoshlik, muayyan genetik bogʻlanish, maʼlum etnosga mansublik asosida (mas., qardosh xalqlar adabiyoti); 3) adabiy taʼsir keng koʻlamli va koʻp bosqichli boʻlishi, butun boshli adabiy davrni tashkil etishi mumkin (mas., J.J.Russo va J.G.Bayron mansub adabiy oqimlarning A.Pushkin, M.Lermontov, L.Tolstoylarga taʼsiri); 4) yozuvchilar oʻrtasidagi adabiy aloqaning bir turi. Bir yozuvchida mavjud syujet, obraz, mashhur motivlar yoki badiiy gʻoyalardan boshqa yozuvchining foydalanishi va h.k.¹⁰.

Filologiya fanlari doktori S.Melining quyidagi fikrlari tipologiya va adabiy taʼsirning oʻzaro qonuniy aloqador, real asosga ega madaniy hodisa ekanini taʼkidlashi bilan birga adabiy taʼsirning mantiqiy aniqlik chegaralarini ham belgilab olishimizga yordam beradi: “Adabiy taʼsir tipologiyaning oʻziga xos xususiy koʻrinishi boʻlib, u ham badiiy hodisalardagi maʼlum oʻxshashliklar, umumiyliklar koʻrinishida voqe boʻladi. Adabiy taʼsirning tipologiyadan farqli tomoni shundaki, biri ikkinchisiga taʼsir etayotgan ijodkor yoki badiiy asar vaqt, makon va mantiq jihatidan asosli boʻlishi zarur”¹¹.

XX asr boshi va oʻrtalaridagi oʻzbek nasrida A.Qodiriy, A.Choʻlpon, Oybek, Gʻ.Gʻulom, A.Qahhorlar ijodida turk, arab, fransuz, ingliz, rus adabiyoti epik anʼanalari borligini inkor etib boʻlmaydi. Maʼlumki, A.Qodiriy va A.Choʻlpon dastlabkilardan boʻlib oʻzbek romanlarini ijod etganlar. Oybek va Gʻ.Gʻulomlar nasrida rus millatiga mansub qahramonlar mavjud. A.Qahhor esa rus adabiyoti klassiklaridan bevosita taʼsirlanganini oʻzi eʼtirof etadi. Masalan, A.P.Chexovni oʻzining ustozii sifatida tilga oladi. Bu anʼana O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtorlar ijodida ham izchil davom etdi, albatta. Oʻ.Hoshimov avlodi hisoblangan Sh.Xolmirzayev, Oʻ.Umarbekov, U.Nazarov, O.Muxtorlar asarlarining yozilishiga ham rus adabiyoti, ruscha tarjimalar

⁹ Doʻysenboyev O.I. Oʻtkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Filol.f.n. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2011.

¹⁰ <https://literaturologiya.academic.ru>

¹¹ Meliyev S. (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 110.

orqali dunyo adabiyotining betakror ta'siri bo'lgani shubhasiz. Shahar odami, qishloq odami, xalq ichidan chiqqan odam, kichkina odam obrazlari, sentimental va romantik obrazlar bevosita L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, M.Sholoxov, V.Shukshin, V.Rasputin asarlarini o'qish natijasida paydo bo'lgan yangi obrazlar edi. XX asrning 60-yillaridan keyin adabiyotga yangi bir e'pin kirib keldi. Bu yangilikning ta'siri dastlab she'riyatda A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfilar ijodida ko'zga tashlangan bo'lsa, nasrda O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, U.Nazarov, O'.Umarbekov, O.Muxtor, O'.Hoshimovlar ijodida yangi izlanishlarning maydonga kelishini ta'minladi. Sanalغانlardan keyingi 80-yillar avlodi hisoblanmish E.A'zam, X.Sulton, M.M.Do'st, T.Murodlar, bularning izidan yetishib kelgan N.Norqobilov, Sh.Bo'tayev, S.O'nar, A.Yo'ldosh, N.Eshonqul, Sh.Hamro, L.Bo'rixon, T.Rustamov, U.Hamdani, I.Sultonlar nasrida esa jahon adabiyotining ta'siri yaqqol sezildi. Sanalغان yozuvchilar ichida asosan to'rtta xorijlik yozuvchi asarlaridan ta'sirlanish an'anasi ochiqroq ko'zga tashlanadi. Bular: J.Joys, U.Folkner, G.G.Markes, A.Kamyular ijodi bo'lib hisoblanadi.

U.Folknerdan ta'sirlanish an'anasi 80-yillarning o'rtalaridan e'tiboran yaqqolroq ko'rinadi. Masalan, shu yillarga qadar Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor an'analariga ergashib asar yozgan O'.Hoshimov 1986-yilda chop ettirgan "Ikki eshik orasi" asarida hikoyalashning tamomila yangicha kompozitsion shakliga o'tgan. Ammo O'.Hoshimovdan keyin U.Folkner nasri an'analaridan bevosita ta'sirlangan, bu ta'sirni obrazlar, syujet motivlari, psixologik holatlar, hikoyalash shakliga ko'ra yaqqol ifoda etgan yozuvchilar sifatida hech ikkilanmasdan T.Murod, M.M.Do'st, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamov asarlarini ko'rsatishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

M.M.Do'stning "Lolazor" romani o'zbek yangi romanchiligida ko'zga tashlangan jiddiy tajribalardan. Urush davrida yashagan odamlar xarakteri va ichki olamini ochishda M.M.Do'st ikki yo'ldan unumli foydalanadi. Birinchi yo'l ularning tarixlarini deyarli tafsilotlari bilan beradi. Bir qarashda asar voqealari yuz berayotgan vaqtda yashayotgandek tuyuladigan qahramonlar, aslida bir yo'la bolalik, yigitlik, qarilik davrlarini bir paytda yashaydilar. Ular uchun xuddi U.Folkner qahramoni Benji singari vaqt manerasi doimiy tarzda o'zgarib turadi. Adibning "Galatepaga qaytish" qissasida ham U.Folkner romanlari ta'sirini sezish mumkin. Bu asar ko'p tomonlama U.Folknerning "O'lar chog'imda" romani voqealari, tasvir yo'li va obrazlari bilan mushtarak tomonlarga ega.

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" deb nomlangan hikoyasida ayol o'chi, faqat ayolga xos bo'lgan sirli qotillik haqida gap ketadi. Qizillar davrida mansabga minib, o'ziga valine'mat va homiy bo'lgan Rayim polvon bilan o'g'lini shafqatsizlarcha otib o'ldirgan Zamon otboqardan ona va rafiqa Bayna momo o'ch oladi. Tersota degan makon ham xuddi U.Folkner Yoknopatofiyasiga o'xshab N.Eshonqulning deyarli barcha asarlarida aylanib yuradi. Ayol o'chining chek-chegarasiz, chalkash va murakkab ruhiyatning kutilmagan ko'rinishi ekaniga o'quvchini ishontiradi. Bu asar xuddi shu tomoni bilan U.Folknerning "Emili uchun atirgullar" asariga o'xshab ketadi. Demak, zamonaviy o'zbek nasrida U.Folkner asarlaridagi voqealar, obrazlar va detallarga ma'lum darajada yaqin keladigan asarlar shu bilan cheklanmaydi. Bunday epizodlar Shoyim Bo'tayevning "Shox", Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat", "Ota", To'xtamurod Rustamovning "Kapalaklar

o'yini", Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanlarida, Shodiqul Hamroning "Qora kun" qissasi, "Qushxonadagi voqea" hikoyalarida ham uchraydi.

Ishning ikkinchi bobi "**Shovqin va g'azab**", "**Tushda kechgan umrlar**" romanlarida kompozitsiya va syujet tipologiyasi" tarzida nomlangan. "*Shovqin va g'azab*", "*Tushda kechgan umrlar*" romanlarida kompozitsiya mustarakligi" nomli birinchi fasl U.Folknerning roman kompozitsiyasiga qo'shgan yangiligi, uning O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" asariga ta'siri muammosi tadqiqiga qaratilgan.

Davr o'zgarishi, modernistik an'analarning yetakchi maqom egallashi, ayni paytda, jamiyat va inson holatlarining o'zgarishi, maydalashuvi ham U.Folkner ijodining yangicha shakl-shamoyil olishini ta'minlagan va bu birinchi navbatda roman kompozitsiyasida namoyon bo'lgan. Kompozitsiya birinchi navbatda butunlik degani. Aristotel "Poetika"sida ta'kidlanganidek, "Butun – bu, ibtidosi, o'rtasi, va intihosi bo'lgan bir narsadir"¹². Jadid mutafakkiri A.Fitrat shuning uchun ham Yevropacha kompozitsiya terminini "tarkib" deya milliyalashtirgan¹³. Chunki badiiy asarni tashkil etuvchi barcha bo'laklar yozuvchi mahorati, iste'dodiga qarab bir asar doirasida tarkiblanadi. Tarkib butun bo'ladigan bo'lsa, asar ham mukammallik, o'ziga xos bir badiiylilik kasb etadi.

U.Folknerning "Shovqin va g'azab", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari kompozitsiyasiga xos yangilanishlar muallif yoki personaj nigohi orqali ko'rish, voqealarning zamon yoki sabab-natija munosabati asosidagi aloqadorligi, yuz berish va hikoya qilish vaqti, turli makon va zamonda kechayotgan voqealarning o'zaro bog'liqligi, makoniy va zamoniy o'zgarishlarning asoslanishi bu ikki romanning mustarak kompozitsion xossalari hisoblanadi. Bu degani ushbu romanlarda boshqa sanalgan xususiyatlar yo'q yoki mazkur romanlar kompozitsion jihatdan sanalgan xususiyatlarning o'zi bilangina chegaralanib qoladi degani emas. Ularda an'anaviy roman kompozitsiyasi bilan bir qatorda tajriba sifatida qo'llangan xususiyatlar ham mavjud. U.Folknerning "Shovqin va g'azab" romani boblarga ajratilmagan. Benji, Kventin, Jeyson va Dilsli tomonidan hikoya qilingan voqealar tartibida sarlavhalangan. Sarlavhalanganda ham an'anaviy usulda emas, xronologik shakldan foydalanilgan. Birinchi bo'lim (Benji hikoyasi) "1928-yilning 7-apreli"; ikkinchi bo'lim (Kventin hikoyasi) "1910-yilning 2-iyuni"; uchinchi bo'lim (Jeyson hikoyasi) "1928-yilning 6-apreli"; oxirgi bo'lim (Dilsli yoki muallif hikoyasi) "1928-yilning 8-apreli" tarzida sarlavhalangan. Diqqat qilinsa, bu yerda faqat Kventin hikoyasi xronologik tomondan boshqa voqealar yilidan farq qiladi. Ulardan to'liq 18 yil-u 56 kun oldingi sanani bildiradi. Boshqa hikoyachilar xronologiyasi esa o'zaro bir kun, bir kundan farqlanadi, xolos. Bularning hammasida shunchaki raqamlar yoki oddiygina xronologiya aks etgan desak yanglishamiz. Bu yerda raqamlar orasidagi farq ham, kun va yillar ham muayyan ma'noda ramziylik yukiga ega¹⁴.

Roman sarlavhasi – "Shovqin va g'azab" ingliz Uyg'onish adabiyotining asoschisi, mashhur dramaturg va shoir Uilyam Shekspirning "Makbet" tragediyasidan olingan. Bu ibora orqali U.Shekspir dunyo – sahna, undagi voqealar jinni tomonidan hikoya qilingan ssenariy, shuning uchun bu joyda g'azabga o'rin yo'q, degan chuqur

¹² Aristotel. Poetika. – Toshkent: Gafur G'ulom, 1980. – B. 19.

¹³ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

¹⁴ Faulkner W. The Sound and The Fury. – Montgomery: Published by W.W.Norton & Company, 1993. – P. 8-258.

ma'noni nazarda tutgan¹⁵. U.Folkner inqiroz tomon borayotgan oila vakillarini mana shu sahna aktyorlari deb talqin etgan. Hikoyalardagi betartiblik, "ong oqimi" uslubi orqali shu ma'noni bermoqchi bo'lgan va o'z maqsadiga imkoni darajasida erisha olgan.

O'.Hoshimov romanining "Tushda kechgan umrlar" deb nomlanishi ham to'raligicha ramziy ma'no tashiydi. Voqelikda umr tushda emas, o'ngda kechadi. Tush esa hech qachon umr bo'la olmaydi. Mutaxassislarning aytishlaricha, nazarimizda tush qancha uzoq davom etgandek tuyulmasin, u vaqt tomonlama uzog'i bilan bor-yo'g'i 2-3 daqiqadan oshmas ekan. U o'z qahramonlarini vaqtning turli bosqichlari bo'ylab sayr qildirar ekan, voqealarni xuddi qo'rqinchli tush kabi tasvirlaydi. Vujud yurgan vaqtni esa Rustamning o'limi bilan bog'liq vaqtda ifoda etadi. Bu bilan insoning ikki ilohiy mo'jiza – tana va ruhdan iborat mukammal yaratiq ekaniga ishora qiladi. Tana azobining ruhiy azob oldida hech narsa emasligi haqidagi falsafiy konsepsiyani ilgari suradi.

"Tushda kechgan umrlar" romani ham xuddi U.Folkner romaniga o'xshab bob va bo'limlardan emas, har bir qahramonning nomi, hikoyasi va tasvirlanayotgan voqea mazmuniga ishora qiluvchi sarlavhalardan tashkil topgan. Faqat O'.Hoshimovda sarlavhalar bir oz milliy va hayotiy voqelikka yaqinroq. Bu fikrimizda sarlavhalarining grammatik shakllantirilishi ham yaqqol guvohlik beradi.

Ikkinchi bobning "*Bir syujetni bir nechta rakursda hikoyalash usuli*" deb nomlangan faslida "Shovqin va g'azab" hamda "Tushda kechgan umrlar" romanlari syujeti, undagi bosh qahramonlar, voqealarni hikoyalashning turli usullari, uslubiy yangilanishlar o'rganilgan.

O'zbek nasriga U.Folkner ta'sirida kirib kelgan yana muhim bir an'anaviy badiiy komponentning yangilangan shakli syujetdir. Ammo bu yangilikni faqat amerikalik yozuvchi kashfiyoti deb qarasa to'g'ri bo'lmaydi. Syujetning umumiy tavsifi, tarkibiy qismlari, syujet bo'laklarining boshqa badiiy komponentlar bilan aloqadorligi, shakl va mazmunga ko'ra munosabati atroflicha yoritilgan, albatta. Ammo ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim tarzidagi syujet tarkibi keyingi davrda yozilgan epik va dramatik asarlarda biron boshqacharoq tartib va ko'rinishda namoyon bo'lyapti. Keyingi paytda yozilayotgan asrlarda syujet tasvirlanayotgan voqelikning yo'qoq o'rtasidan, yoki tugagan nuqtasidan tasvir etib boshlanmoqda. Asosiy syujet ekspozitsiyasi, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechimi asosiy matn tarkibida, muayyan tartib bilan emas, ba'zan yondosh matn tarkibida hikoyachilarning voqelikni talqinlash darajalariga ko'ra, ba'zi hollarda teng huquqqa ega bir necha qahramonning ichki harakatlari tasviri vositasida namoyon bo'lyapti. Ko'p hollarda ekspozitsiya va yechim syujet tarkibida uchramaganidek, syujetning boshqa tarkibiy qismlarining ham faol ishtiroki sezilmaydigan asarlar ham mavjud. Keyingi paytlarda hatto o'zbek adabiyotida ham shunday asarlar uchrayaptiki, unda asosan bir qahramonning o'ylari, ichki konfliktlari, fikrlash, inqiroz va umid yo'li monologik nutqda hikoya qilingani kuzatilyapti.

U.Folknerning to'rt personaj tomonidan hikoyalangan "Shovqin va g'azab" romani syujetida ko'pchizikli va zigzag harakatlanuvchi vaqt, syujet o'yini, konsentrik syujetning o'ziga xos yangi shakli kashf etilgan. Roman syujeti ma'no tomonlariga ko'ra ham boshqa romanlar syujetidan farqlanadi. Yana bir muhim farqi shundaki,

¹⁵ Shekspir U. Saylanma. Rus tilidan J.Kamol tarjimasi. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent, Fan, 2007. – B. 384-489.

AP-5566



ushbu konsentrik syujet ichida harakatlanuvchi qahramonlar “ichki harakati” ham boshqa an’anaviy romanlardagidek dinamik mohiyat kasb etmaydi. Uch asosiy qahramondan birontasi ruhiy-ma’naviy jihatdan o’smaydi. Aksincha, bu qahramonlarning “ichki harakatlari” alaloqibat ularning barchasini ruhiy-ma’naviy inqirozga olib keladi. Bu jarayonda Benjining telbaligiga yana telbalik qo’shiladi, Kventin joniga qasd qiladi, Jeyson esa tobora zolimga aylanadi.

“Tushda kechgan umrlar”da ham roman syujeti to’rt personaj tomonidan hikoyalanadi. Ammo Rustam, Qurbonoy xola, Shahnoza va Soat G’aniyevichlar tomonidan olib borilgan bu hikoyalar ichida Rustam kundaliklari markaziy o’rinda turadi. Garchi Rustamning o’z joniga qasd qilishi bilan boshlangan, ushbu jinoyat ishiga doir hikoyalar ko’p o’rinlarda bir-birini sal boshqacharoq shaklda takrorlasa ham, personajlar hikoya qilayotgan syujet mohiyatda bitta bo’lsada, bu romanda asosiy va yondosh hikoyachilar ajralib turadi. Shu tomonlama O’Hoshimov romani syujetining hikoyalanish tarzi U.Folkner romanidagidan biroz farq qiladi.

Dissertatsiyaning so’nggi bobi **“Obraz talqini, epik tasvir va badiiy vaqt mutanosibligi”** deb nomlangan, bo’lib birinchi fasli *“Obraz tipologiyasi va nuqtayi nazarlar xilma xilligi”* masalasini tadqiq etishga yo’naltirilgan.

“Shovqin va g’azab” hamda “Tushda kechgan umrlar” romanlari obrazlari ham xuddiki syujeti, kompozitsiyasida bo’lgani kabi an’anaviy romanlarnikidan farq qiladi. An’anaviy roman obrazlarida kuzatiladigan ijobiylik, salbiylik yoki salbiylikdan ijobiylikka, ijobiylikdan salbiylikka tomon harakat chizig’i bu ikki romanda yaqqol sezilmaydi. Shuning bilan birgalikda, ularda obrazlarning ijtimoiy shart-sharoit, maishiy munosabatlar yoki sevgi, nafrat, maqsadlar qarama-qarshiligi yoki mushtarakligi kabi sabablarga ko’ra o’zgarish hodisasi ham kuzatilmaydi. Bu asarlarda har bir obrazning o’zi o’z subyekti ichida alohida orol, shunga monand holda bir roman ichidagi obrazlarning har biri o’z nuqtayi nazariga ega. Natijada yagona romanda bir paytning o’zida turli nuqtayi nazarlar yetakchilik qiladi. Obrazlarga xos turlicha nuqtayi nazarlarni bog’lab turuvchi muhim vosita bo’lib esa, bu romanlarda oldingi bobda biz ko’rib o’tgan syujet birbutunligi xizmat qiladi.

“Shovqin va g’azab” romani markazida to’rt obraz turadi. Boshqa barcha personajlar, voqea-hodisalar shu to’rt obraz nigohi orqali kuzatiladi va tasvirlanadi. Modomiki romanda to’rt obrazning har biri o’zi mansub alohida voqelik ichida tasvirlanganida biz bu roman obrazlariga nisbatan to’g’ridan-to’g’ri nuqtayi nazarlar xilma-xilligi degan muammoni qo’yishimiz to’g’ri bo’lmas edi. Albatta, har bir alohidalangan badiiy voqelik chizig’i, tabiiy ravishda alohida nuqtayi nazarni talab etadi. Bu jihat an’anaviy romanlardagi ko’pchiziqli syujet shakllariga xos va mos. Ammo asar syujeti markaziga bir voqeaning qo’yilishi va shu yagona voqeaning turli qahramonlar tomonidan hikoya qilinishi, bir voqeani turli qahramonlarning o’z nuqtayi nazarlariga ko’ra tushunishi, bayonlashi va munosabat bildirishi shubhasiz obrazlar originalligiga olib kelganini qayd etishimiz lozim. Demak, bir romanda bir nechta nuqtayi nazarlarning yonma-yon ifodalanishi muallif nuqtayi nazari yakkahokimligiga barham berishi bilan birga roman obrazlari originalligini ta’minlashga ham xizmat qilgan deyish mumkin. Muallif bu joyda go’yoki o’ladi. Ammo o’z qiyofasini shu obrazlar ortiga yashiradi, aytmoqchi bo’lgan gapini shu obrazlar xarakteri, qiyofasi,

nutqi orqali aytadi. Bularning hammasi birgalikda yozuvchi estetik idealini yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi.

Voqeliklarga ochiq munosabatsizlikda O'.Hoshimov qahramonlaridan Qurbonoy xolaning Benji bilan o'xshash tomoni faqat shu munosabatning passivligida ko'rinadi. Aslida Qurbonoy xola Benjidan farq qilib, unda aql-tafakkur, ma'no-mantiq tomonlama muammo yo'q. Nutqi ham o'z davri shahar ayollariniki kabi ravon, salmoqli, ta'sirchan. U baxtsiz bolaligi, keyingi hayoti haqida risoladagidek so'zlab beradi. So'zlagan gaplari, voqealar tafsilotini bayon etishi, o'z-o'ziga munosabati uning xarakterini yaqqol ochilishiga xizmat qiladi. Tadqiq etilayotgan romanlardagi yana ikki obraz o'z xarakter xususiyatlariga ko'ra bir-biriga ancha yaqin keladi. Bular Soat G'ayniyevich bilan Jeyson obrazlari. Soat G'ayniyevich obrazi davlat odami, NKVD xodimi sifatida butun jamiyatga nisbatan zulm va nafratini namoyish etsa, Jeyson oilaning yagona boquvchisi, onasining erkatoyi sifatida butun oila a'zolariga o'z zulm-zo'ravonligini o'tkazadi. Bu ikki obrazga xos eng xarakterli xususiyat ularning hammadan birdek g'azablanishidir. Ularning har ikkisi atrofdagilarga diktatorona munosabatda bo'ladi.

Umuman, roman obrazlari orqali yozuvchi shuni aytmoqchi bo'ladiki, bir toifa Soat G'ayniyevichga o'xshab xoin va zolimga, boshqa toifa – Qurbonoy singarilar qo'y og'zidan cho'p olmaydigan mo'minga aylangan edilar. O'.Hoshimov xuddi shu va shunga o'xshash holatlarni bu ikki toifa kishilarini yonma-yon tasvirlash, o'zaro zid xarakterli obrazlarni solishtirish orqali ko'rsatgan.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida "Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" romanlarida epik tasvir va badiiy vaqt munosabati tadqiq etilgan. Bunda badiiy vaqtning U.Folkner va O'.Hoshimovga xos yangilanishi, bu yangilanishda badiiy tasvirning o'rni haqidagi ilmiy konsepsiyalar ilgari surilgan.

U.Folknerning "Shovqin va g'azab" romanini yozishdan asosiy niyati asosan vaqtning original obrazini badiiy inkishof etish edi. Benji yashayotgan vaqt tasviri an'anaviy romanlardagi o'tmish vaqti (retrospektiv vaqt) bilan kelajak vaqti (predikativ vaqt)ning moduliga o'xshab ketadi. Ammo U.Folkner romanidagi vaqtning yangiligi va o'ziga xosligi shundaki, uning qahramonlari, ayniqsa Benji shu ikki vaqt shakli oraliqidagi qiyshiq chiziqli vaqt bo'roni ichida harakatlanadi. O'quvchi Benji vaqtining qachon va qaysi bir sababga ko'ra o'zgarganini, u tasvirlanayotgan muayyan voqea doirasida qaysi vaqtda yashayotganini sezmaydi. Buni sezib olishiga Benji tomonidan tashqi voqelikda kuzatilayotgan shovqin bilan uning botinidagi ruhiy shovqinning sezilmaydigan darajada qorishtirib yuborilganligi xalal beradi. Kventin tomonidan hikoya qilib berilgan 1910-yilning 2-iyun kuni voqealari asosan Keddi va Kventin o'rntasidagi voqealar tasviriga bag'ishlangan. Kventin shahar ko'chalarini dastlab tramvayda, keyin yayov kezib Keddi bilan bo'lgan voqealarni xotirlaydi. Keyin shu yo'l bo'ylab borib o'zini daryoga cho'ktirib o'ldiradi. U o'zining ichki xayollari bois gunohkor sezadi. O'zining amalga oshmagan, faqat xayolida yuz bergan gunohlari uchun shu tarzda jazolaydi. Kventinning Keddi haqidagi xayoliy hikoyalarini muallif asosan hech bir nuqta, vergullarsiz, umuman bironta tinish belgisi ishlatilmagan holda ifodalaydi. Bu hikoya dramatik asardagi dialogni esga soladi. Romanning to'rtinchi qismida yuqorida ta'kidlaganimizdek Dilsli hikoyasi va uning hatti-harakatlari orqali ko'pgina voqealar, xarakterlar odatdagi vaqt birligida ochilib boradi. Masalan,

to'rtinchi qism hikoyasi boshlangan joyidanoq atrofdagi interyer tasviri fonida Kompsonlar xonadoni va unda uzoq yillardan beri ivirsib yashayotgan Dilsa tasviri keladi: "The day dawned bleak and chill, a moving wall of grey light out of the northeast which, instead of dissolving into moisture, seemed to disintegrate into minute and venomous particles, like dust that, when Dilsey opened the door of the cabin and emerged, needled laterally into her flesh, precipitating not so much a moisture as a substance partaking of the quality of thin, not quite congealed oil"¹⁶. "Kun ayozli va izg'irinli boshlandi, shimoli-sharqdan kulrang tomchilar emas changsimon zarralar yopirilib kelardi, Dilsa kulbasini eshigini ochib, yoriqdan boshini chiqarganida xuddi suvli emas, balki suyuq-yog'li muzlatuvchi chang o'rab oldi". Keltirilgan ushbu epik tasvirda romanning shu o'rnigacha ko'zga tashlangan odatdan tashqarilik, noizchilik va aqlga sig'maydigan moderncha ifoda uslubi seziladi.

"Tushda kechgan umrlar" romanidagi epik tasvir hamda badiiy vaqt o'tasidagi munosabat ham o'zigacha yozilgan o'zbek romanlaridagi kabi an'anaviy emas. Avvalo romanning umumiy badiiy vaqti retrospektiv usulda qurilgan. Romanda tasvirlangan barcha asosiy voqealar yaqin o'tmishda – bir-ikki kun avval ro'y bergan – mudhish voqeadan keyin keladigan vaqt birligida tasvirlanadi. Qurbonoy xola, Shahnoza, Soat G'aniyevich, tergovchi Zohid hikoyalari, tergov jarayonlari, qahramonlar o'tmishi bilan bog'liq hodisalarning xotirlanishi, Rustam joniga qasd qilgan vaqt va makonda harakatlanayotgan odamlarning bu voqega nisbatan munosabatlari va h.k. Ayni paytda har bir asar qahramoni, ular tomonidan yoki ularning ishtirokida tasvirlanayotgan epik voqelikning o'z xususiy vaqti bor. Shunga o'xshash turli obraz va voqealar vaqti "Tushda kechgan umrlar" romanidagi bitta voqega – Rustamning o'limi voqeariga chambarchas bog'lanib ketadi.

Rustamning birinchi kundaligi noyabr oyidagi voqealar bilan, Rustamning akasidan olgan xatiga kelib tugaydi. Ikkinchi kundalik ham xuddi birinchi kundalikdek may oyi, ammo endi 16-sana bilan boshlanadi: "11-76" da ketyapmiz. U yoqqa olib ketishayotganda soldatlarni qanday "bosishgan bo'lsa, bu yoqqa kelayotganda ham, shunday zichlab joylaganlar. Farqi shuki, u yoqqa borganlar orasida do'stlarim bor edi: Xayriddin, Temur aka, Sasha... Hozir atrofdagi bolalarni deyarli tanimayman: turli qismlardan to'plangan "dembillar"¹⁷. Bu kundalikda ham dastlabki jumlar qahramonning ayanchli xotiralari bilan boshlanadi. Rustamning oxirgi kundaligida, "Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi" sarlavhasi ostida asarning fojiaiy pafosi kulminatsion nuqtaga ko'tariladi. Dunyodan o'z niyati, qobiliyati, salohiyatiga yarasha mukofot ololmagan, jamiyat ichidagi nosozliklar, oilaviy noqisliklar, ruhiy iztiroblar girdobidan chiqq olmay qolgan Rustam kundaliginig so'nggi jumlarini shunday yakunlaydi: "Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga? Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidir! Nima farqi bor?!"¹⁸ Qahramonning mana shunday fojiaiy xulosasi bilan asar yakunlanadi. Asarning birinchi jumlası bu yerga kelib yana aynan takrorlanadi. Qahramon o'z joniga qasd qiladi. Shu joyga kelib Rustam va Shahnozaning bevaqt so'ngan yulduzlari hayot

¹⁶ Faulkner W. The Sound and The Fury. – Montgomery: Published by W.W. Norton & Company, 1993. – P. 215.

¹⁷ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. 4-tom. Roman, qissa, hajviyalar, tarjimalar, o'ylar. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 158.

¹⁸ Shu asar. – B. 251.

osmonidan butkul o'chadi. Ammo romandagi badiiy vaqt shu voqeadan keyin yana o'zining odatdagi maromiga qaytadi. Chunki hayot qancha fojiali, alam-qayg'ularga boy bo'lmasin davom etaveradi. Yozuvchi o'z romanini yuqoridagi jumla bilan boshlab, shu jumla bilan tugatishida mana shunday falsafiy ma'no bor.

UMUMIY XULOSA

1. O'zbek adabiyoti ko'p asrlardan beri boshqa xalqlar adabiyoti bilan mustahkam tipologik aloqalarini davom ettirib keladi. O'zbek adabiyotining Yevropa va Amerika adabiyoti bilan tipologik aloqalari XX asrda shakllana borib, shu yuz yillikning 80-yillarida o'zining taraqqiyot bosqichiga chiqdi.

2. O'.Hoshimov va U.Folkner romanlari tipologiyasi ko'proq tarjima va adabiy aloqalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Yozuvchilar yashagan davr, siyosiy, iqtisodiy, maishiy omillar ham bu ikki yozuvchi asarlari o'rtasidagi tipologiklikni ta'minlovchi vositalar bo'lib hisoblanadi. U.Folkner bilan bog'liq nasriy an'analar ta'siri o'zbek adabiyotida birgina O'.Hoshimov bilan cheklanmaydi. Biz U.Folkner an'analari shuningdek M.M.Do'st, T.Murod, E.A'zam, N.Eshonqul, T.Rustamov, U.Hamdamlar nasrida ham kuzatamiz.

3. Ayni paytda U.Folkner nasrida quruq sahroda shakllanmagan. Yozuvchi Amerika nasrida o'zigacha an'anada bo'lgan plantatorlik romanlari uslubidan ta'sirlangan. Xususan, "Shovqin va g'azab" romani ham shunday an'analardan holi emas. Amerika yozuvchisining bu asari vaqt falsafasining yangicha badiiy talqinidir. Mavjud uch zamon vaqtining tartibsiz ravishda bir qahramon "ong oqimi"ga joylanishiga ko'ra U.Folknerning "Shovqin va g'azab" romani plantatorlik romanlaridan o'zgacharoq va muhimroq mohiyat kasb etadi. U.Folkner ijodi lirika bilan boshlangan. Uning turli asarlari, jumladan, "Shovqin va g'azab" romanida ham lirizmning yetakchilik qilishi ushbu omildan kelib chiqadi.

4. Jahon va o'zbek adabiyotshunoligida U.Folkner ijodi atroflicha o'rganilgan. U.Folkner shaxsiyati va ijodi haqidagi fikrlar xilma-xil, ba'zilar o'zaro bir-biriga monand, ba'zilar boshqasini inkor etadi. Tadqiqotlar ichida eng ko'pi "Shovqin va g'azab" romani haqida yozilgan bo'lib, bu roman ingliz, fransuz, nemis, rus va kavkaz xalqlari yozuvchilari asarlari bilan taqqoslangan. Demak, U.Folkner ijodida muhim o'rin tutadigan bu roman jahon adabiyotiga ham samarali ta'sir ko'rsatgan.

5. O'.Hoshimov romanlaridagi shakli-mazmuniy takomillashuv uning "Ikki eshik orasi" romaniga kelib yaqqolroq kuzatiladi. Bunda amerikalik yozuvchi U.Folkner nasri ta'sirining muhim o'rni bor. Yozuvchining mazkur romani shunday o'zgarishlarni namoyon etgan: a) an'analar negizida yangicha hikoyalash uslubi va yangi kompozitsion shakl paydo bo'lgan; b) Folkner romanidagi kabi "Ikki eshik orasi"da ham bosh qahramon mavjud emas; d) romanda yagona voqea bir nechta qahramon tomonidan hikoyalangan; e) yozuvchi aynan shu asarida realizm doirasidan chiqib, eksperimental realizmga asos solgan.

6. Badiiy asar kompozitsiyasi ibtido, o'rta va intihodan iborat bo'laklardan tashkil topgan. Ular yozuvchi mahorati, iste'dodiga qarab turlicha tarkiblanishi mumkin. O'z kompozitsiyasiga ko'ra XX asr Yevropa va Amerika nasrida muallif nuqtayi nazari qahramon nuqtayi nazari bilan qorishib ketgani ko'zga tashlanadi. Roman syujeti bir nechta qahramonlar tilidan hikoya qilina boshladi. Muallif bayonchilik vazifasidan

chekindi, bir nechta qahramonlar pozitsion mozaikasi roman kompozitsiyasini tashkil etdi. "Shovqin va g'azab" romani mana shunday yangilangan kompozitsion xususiyatga ega. "Tushda kechgan umrlar" romani ham xuddi U.Folkner romaniga o'xshab bob va bo'limlardan emas, har bir qahramonning nomi, hikoyasi va tasvirlanayotgan voqea mazmuniga ishora qiluvchi sarlavhalardan tashkil topgani bilan originallik kasb etadi. U.Folkner romaniga tipologik nuqtayi nazardan yaqinlashadi.

7. U.Folknerning "Shovqin va g'azab", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari kompozitsiyasidagi tipologiklik ularning an'anaviy roman qurilish tizimi, murakkab sarlavhalanish, makon-zamonning mantiqiy munosabatga ko'ra emas, ko'proq tartibsiz zamon harakatiga muvofiq tashkillantirilishi bilan bog'liqdir.

8. Bu ikki roman syujetining ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim tarzida qurilgan an'anaviy epik asarlardan ko'ra boshqacharoq ko'rinishga ega bo'ldi. Ularda roman syujeti muayyan tartib bilan emas, hikoyachilarning voqelikni talqinlash darajalariga ko'ra, ba'zi hollarda teng huquqqa ega bir necha qahramonning ichki harakatlari tasviri vositasida yuzaga chiqadi. Ekspozitsiya va yechim esa syujet tarkibiy qismidan ham tushib qolishi kuzatiladi.

9. Ushbu romanlarda turli nuqtayi nazarlarning parallel ifodalanishi muallif nuqtayi nazari diktaturasiga barham beradi. Ayni paytda roman obrazlari keng ko'lamligi va yangiligini ta'minlaydi. Natijada yozuvchi estetik idealini yorqinroq namoyon bo'lib, o'quvchi ko'z o'ngida roman voqeligi bor salmog'i bilan namoyon bo'ladi.

10. O'.Hoshimov romanida esa masala bir qadar boshqacharoq tarzda talqin qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Yozuvchi bu romanida o'zbek xalqining ijtimoiy tarixidan kelib chiqib asar voqealarini shakllantirgan. Nega deganimizda XX asr 30-yillarida ziyoli, bilimli, millatparvar shaxslarning qamalishi, madrasa, masjidning yo'qotilishi, xudosislik g'oyasi targ'ibi xalqimizdan chiqqan keyingi avlodlarning inqiroziga olib kelgan edi. "Shovqin va g'azab" romani qahramonlaridek, "Tushda kechgan umrlar" romanida tasvirlangan obrazlar prototiplari ham "yo'qotilgan avlod" sanaladi.

11. "Shovqin va g'azab", "Tushda kechgan umrlar" romanlaridagi Benji va Qurbonoy xola, Soat G'aniyevich va Jeyson obrazlari o'rtasida asosli tipologik xususiyatlar mavjud. Ular o'rtasini o'xshash dramatik vaziyatlar, maishiy-psixologik muhit, keskin dialoglar tizimi fikrimizning yaqqol dalilidir.

12. "Tushda kechgan umrlar" romanidagi eng ko'lamdor, serqamrov epik vaqt birligi Rustam obrazi bilan bog'liq tasvirlarda namoyon bo'ladi. Uning atrofida kechgan boshqa barcha epizodlar hamda voqealar yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Rustam bilan bog'liq syujet hamda epik vaqt uning nomidan asarga kiritilgan kundalik vositasida Parkent, Toshkent, Afg'oniston singari katta makon ko'lamini tashkil etadi.

Umuman, U.Folknerning "Shovqin va g'azab", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlarida avlodlar inqirozi, yo'qotilgan avlod fojiasi va buning ijtimoiy, ma'naviy, psixologik oqibatlari o'z badiiy ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan bu ikki romanning milliy va umumbashariy muammolarini anglash, baholash va hal etishda ahamiyati cheksizdir.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER SCIENTIFIC COUNCIL ON
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOIY**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

SHERKULOV SARDOR KOMILOVICH

**TYPOLOGICAL FEATURES OF NOVELS BY WILLIAM FAULKNER AND
UTKIR HOSHIMOV**

(in the example of the works “The Sound and The Fury”, “Lives in a Dream”)

10.00.06 – Comparative literature, contrastive linguistics and translation studies

**ABSTRACT OF DISSERTATION OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
IN PHILOLOGY**

Tashkent – 2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B.2021.1.PhD/Fil 901.

The dissertation has been prepared at Uzbekistan State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (abstract)) on the Scientific council website (www.navoiy-uni.uz) and on the website Ziyonet information and educational portal website (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Musurmonov Erkin Rabbimovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Kholiqov Bahodir Aliqulovich
PhD, associate-professor

Leading organization:


Karshi State University

The defense will take place on « 19 » 08 2023 at 10:00 at the meeting of Scientific council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 on awarding scientific degrees at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street-103. Tel: (99871) 281-42-44, fax (99871) 281-42-44 (www.navoiy-uni.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available at the Information Recourse Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under the number) (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street-103. Tel: (99871) 281-42-44, fax (99871) 281-42-44 (www.navoiy-uni.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Abstract of dissertation was sent out on « 17 » 07 2023

(Mailing report № 1 on « 17 » 07 2023)


N. Normurodova
Chairman of the one time Scientific council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, associate professor

Q.T. Pardaev
Secretary of the one time Scientific council under the Scientific council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, associate professor

D.R. Yusupova
Chairman of the seminar of the one time Scientific council under the Scientific council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, associate professor

INTRODUCTION (The annotation of doctoral dissertation)

The topicality and relevance of the research. From the end of the 19th century to the second half of the 20th century, serious attention was paid to the problems of comparative literature in world literary studies. In this century, the scope of research on the problem has reached a global level. Because comparative literature and literary influence, literary relations, and translation studies, which are important components of the literary process, are the historical-aesthetic basis for the development of world literature.

The literature of the peoples of the world develops as a result of constant literary contacts, the creative assimilation of the experiences of one nation's culture and literature by another, and rises to a global scale. The first renaissance of the peoples of the East had a significant impact on the culture of Europe through Italy, Spain, and France. The European peoples, who studied Eastern philosophy and science extensively and deeply, used them as a basis for defining their concepts of renaissance. As a result, Europe achieved achievements in the fields of science and technology, culture, philosophy, and literature, which began in the 14th century and reached the peak of development in the 17th century. Now, with the modern spirit of their achievements and effective practical results, they began to influence the cultural life and social life of all the peoples of the East.

Uzbek national culture and literature began to actively participate in this global process from the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. At first, the Russian culture, and later the Jadidism movement that began in the whole of Russia, was a factor of the quickening of Uzbek intellectuals' activities of familiarization with the culture of world nations, assimilation and renewal. In the 20th century, translations from the literature of European nations, comparative literary studies, literary influence, and research on literary relations accelerated the processes of our national writers and poets' experimental approach to new genres, artistic images, and artistic forms. The influence of American prose on Uzbek literature is also considered a practical result of comparative literary relations on a global scale. The traditions of the famous American writer W.Faulkner had a significant impact on the work of a number of Uzbek writers, especially the peoples writer of Uzbekistan U.Hoshimov, so the study of the problem in the aspect of comparative literary studies is relevant for the scientific development of the literature of the period of independence.

This dissertation work to certain extent serves for the implementation of Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", No. PF-4958 of February 16, 2017 "On further improvement of post-university education"; No. PQ-2909 dated April 20, 2017 "On measures to further develop the higher education system", No. PQ-3271 dated September 13, 2017 "On development of the system of publication and distribution of book products, improvement and promotion of reading and reading culture" Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 22, 2017 No. VMQ-304 "On further improvement of post-university education" as well as other legal enactments.

Compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development. The research was carried out within the framework of priority line I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy" of the republic's science and technology development.

The level of study of the problem. The works of the American writer W. Faulkner and the Uzbek writer U. Hoshimov, who are the object of our research, have been studied by literary critics since their early literary works.

The works written by world literary experts, estheticians, philosophers and sociologists about W. Faulkner's novels, short stories and stories require an independent scientific research. Faulkner's prose, which appeared on the basis of literature of traditional realism and modernism, did not remain indifferent not only world literature specialists, but also literature fans. In particular, his novels "Light in August", "Absalom, Absalom!", "The Sound and the Fury" enthusiastically received by the literary community and literary critics, and were thoroughly researched. The relationship of the writer's novels to the American and European prose traditions, the principles of those novels renewal, issues of poetic development, Faulkner's plot, style, the world of images, issues of psychological analysis were actively researched by American and European researchers from a comparative, scientific-theoretical, psychological point of view in the 50s-90s of the 20th century¹.

It is observed that the writer's works are consistently studied and analyzed in Russian and Uzbek literary studies.

The study of Faulkner's work in Russia has its own specific system and scientific-historical basis. The study of Faulkner's work, which began in the 70s of the last century in Russia, was studied within the framework of the historical appearance of the writer's prose, aspects of poetic connection with Russian and European novels, lyricism, irony, typology of artistic images, plot, and the concept of artistic time. It's

